



XALQ DEPUTATLARI QO'SHTEPA TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 15 - aprel

VI-53-38-11-157-K/22

Qo'shtepa tuman hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish maqsadida Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarorlari asosida joriy yilning 1-fevralidan 2-aprelga qadar o‘tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha Qo‘shitepa tumani hokimligi moliya bo‘limi mudiri I.Akbarovning axboroti;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi “Tuman va shahar budjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllanirilgan tadbirlarga yo‘naltirish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini yanada qo‘llab-quvatlash to‘g‘risida”gi PQ-197-sonli qaroriga asosan Qo‘shitepa tumaniga har biri 2 ming tadan ortiq ovoz to‘plagan, lekin g‘olib bo‘lmagan **6 ta** takliflarni moliyalashtirish uchun Respublika budjetidan qo‘shimcha **2493,2 mln. so‘m**

mablag' ajratilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashining 2022-yil 7-fevraldagi VI-51-25-11-157-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi "Tuman va shahar budjetlari mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllanirilgan tadbirlarga yo'naltirish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini yanada qo'llab-quvatlash to'g'risida"gi PQ-197-sonli qaroridan kelib chiqib, "ENG KO'P" ovoz olgan hamda "Ochiq budjet" axorot portalida avtomatik tarzda g'olib sifatida tanlab olingan takliflar "g'olib" deb topilsin.

Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo'yicha "Manzilliy ro'yhat" ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda,

- jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko'payishi yoki loyihaning o'zgartirilishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'ymaslik;

- jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan tuman budjeti mablag'lari tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlangan mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanishi belgilab qo'yilsin.

3. Tasdiqlangan Manzilliy ro'yxat asosida:

- tuman hokimligi Moliya bo'limi (I.Akbarov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag' manbaasi bo'yicha (4017) "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" maxsus hisob raqamlari ochilishini;

- tuman hokimligi hisobxonasi (M.Muraximov) Jamg'arma mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag'lar yo'naltirilishini;

- buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (Y.Qosimova) va tuman moliya bo'limi (I.Akbarov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va "g'olib" deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni "Ochiq budget" portaliga joylashtirilishini va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishi tavsiya etilsin.

5. Tuman budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a'zolari shaxsan javobgarligi eslatib o'tilsin.

6. Mazkur bayon ijrosini ta'minlash va nazorat qilish komissiya a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



I.V.Novikov

Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashining
2022 yil 15 apreldagi
VI-53-38-11-157-K/22-son qaroriga
1-ilova

Qo'shtepa tumani bo'yicha 2022 yil "Tashabbusli budjet" jarayonining 1-bosqichi natijalariga asosan jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha MANZILLI RO'YXAT

ming so'mda

№	G'olib taklif ma'lumotlari			Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Xaqiqatda jami ajratilgan mablag'	Shundan			Buyurtmachi etib belgilangan tashkilot
	Taklif ID raqami	Qisqacha mazmuni	To'plagan ovozlari soni			Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Mahalliy byudjetning qo'shimcha manbaalari hisobidan	Byudjet parametri doirasida	
		Qo'shtepa tumani jami		8 519 300	8 519 300	8 519 300	0	0	
1	1480400015	Qo'shtepa tumani Qorajiyda qishlog'i elektr infratuzilmasini yaxshilash	3965	1 080 000	1 080 000	1 080 000			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi
2	1480400009	G'ishtmon MFY Oxang ko'chasi infratuzilmasini yaxshilash	3908	923 000	923 000	923 000			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi

3	1480400109	Gaz taminotini qayta rekonstruksiya qilish. Oqtepa MFY Nayman qishlogʻi Qoʻsh tepa tumanining eng chekka hududida joylashgan boʻlib gaz tarmogʻining asosiy quviriga ulangan. Xozirda qoʻshni qishloqning bizni tarmoqqa ulanganligi va istemolchi soni oshganligi natijasida gaz bosimi pasayishiga olib keldi. Yuqoridagilarni inobatga olib, Oqtepa MFY Nayman qishlogʻiga asosiy quvirdan yangi tarmoq ochib, xar bir xonadonni toʻliq tabiiy gaz bilan taʼminlash kerak.	3215	600 000	600 000	600 000			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi
4	1480400043	Shomirza MFY Chinobod koʻchasida joylashgan "Oʻzbekiston" shifokorlar xizmat uyini taʼmirlash uchun mablagʻ ajratish zarur	3183	200 000	200 000	200 000			Tuman tibbiyot birlashmasi
5	1480400031	Gʻishtmon mfy Maʼnaviyat, Ibn sino va Nafosat koʻchalarining infratuzilmasini yaxshilash uchun mablagʻ ajratish zarur	3169	730 100	730 100	730 100			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi
6	1480400032	Gʻishmon MFY Badish koʻchasining infratuzilmasini yaxshilash uchun mablagʻ ajratish zarur	2847	227 400	227 400	227 400			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi

7	1480400008	Xozirgi kunda bizni G'ishtmon mfy Bunyodkor, Dilxush va Yangiariq ko'chalari tashkil qilingandan buyon asfaltlanmagan. Ushbu ko'chalarni 2591 metr qismini asfalt qilish uchun OPEN budget mablag'lari hisobidan 880900000(sakkiz yuz sakson million to'qqiz yuz ming) so'm mablag' ajratishingizni iltimos qilaman	2594	880 900	880 900	880 900			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi
8	1480400108	G'ishtmon MFY Yangiariq va Ma'naviyat ko'chalarini Karnaychi MFYsiga ulanish qismigacha asfaltlashtirish	2490	622 000	622 000	622 000			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi
9	1480400060	Paxtakor mfy Marg'ilonsoy ko'chasini asfaltlashtirish 600 metr	2452	450 000	450 000	450 000			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi
10	1480400033	Katta Beshkapa MFY Bog'imaydon ko'chasining infratuzilmasini yaxshilash uchun mablag' ajratish zarur	2382	171 500	171 500	171 500			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi
11	1480400011	Bo'ston MFY Kanalbo'yi ko'chasiga 1 dona transformator 20 dona sim yog'och va 500 metr tarmoq tortish uchun 141 mln 200 ming so'm mablag' ajratish zarur	2369	141 200	141 200	141 200			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi
12	1480400101	Qo'shtepa tumani, Loyson MFY, Mulkobod ko'chasini 1000 metr qismini asfalt qilish zarur	2316	450 000	450 000	450 000			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi

13	1480400010	Qumtepa mfy Iqtidor ko'chasining 500 metr qismini asfalt qilish uchun mablag' ajratish	2311	170 000	170 000	170 000			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi
14	1480400017	Qorakaltak MFY Kelajak ko'chasiga 2 dona transformator, 60 dona simyog'och va 500 metr elektr tarmog'i tortish uchun 247 million 600 ming so'm mablag' ajratish zarur	2210	247 600	247 600	247 600			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi
15	1480400037	Kichik Beshkapa mfy dagi Hilol , Ravnaq va Subhidam ko'chalarining infratuzilmasini yaxshilash uchun mablag' ajratish zarur	2181	485 600	485 600	485 600			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi
16	1480400024	Qo'shtepa tumani Qirg'izobod qishlog'i ichki ko'chalari asfaltlashtirilmagan. Ch.Aytmatov, Oydinbuloq ko'chalari Nayman ko'chasi yangi cheklarini asfaltlashtirish zarur. Bu ko'chalarda yozda chang va qishda loy bilan qoplanib qoladi.	2137	950 000	950 000	950 000			Tuman obodonlashtirish boshqarmasi
17	1480400039	Qizilariq MFY binosini joriy ta'mirlash	2043	190 000	190 000	190 000			Tuman mahalla va oila bo'limi